YOSHLARNI MA’NAVIY MEROSGA VORISLIK RUHIDA TARBIYALASH DAVR TALABI

Ilmiy rahbar: ***Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o‘g‘li***
Qo’qon davlat universiteti dotsenti, PhD
Iqtidorli talaba: ***Mo'minjonova Madinaxon Sherzod qizi***
Qo’qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Yoshlarni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalash fuqarolik jamiyatini muhim sharti bo‘lib, insonlar bir-biriga ehtiyoj sezganda va tarqoqlikda hech narsani uddalay olmasliklarini tushunganda namoyon bo‘ladi. Bu muammoni tahlil qilganda ba‘zan chidamlilik maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida fikr bildiriladi.

Kalit so’zlar: gumanitar, ta‘lim-tarbiya, fanatizm, vorislik, milliy-madaniy.

Аннотация: Воспитание молодежи в духе наследственности – важное условие гражданского общества, когда люди чувствуют потребность друг в друге и осознают, что в беспорядке ничего не могут сделать. При анализе этой проблемы иногда предполагают, что выносливость является подходящей.

Ключевые слова: гуманитарное образование, фанатизм, наследственность, национально-культурное.

Annotation: Educating young people in the spirit of inheritance is an important condition of civil society, when people feel the need for each other and realize that they can do nothing in disarray. When analyzing this problem, it is sometimes suggested that endurance is appropriate.

Keywords: humanitarian, education, fanaticism, inheritance, national-cultural.

Ma’naviy merosga vorislik tarbiyasi yoshlarda milliy o‘zlikni anglash hamda insoniylik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga ma’naviy merosga vorislik fazilatini tarbiyalashda oilaviy tarbiya, ta‘lim va ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ta‘lim-tarbiya, milliy ahloqiy qadriyatlarimizdan samarali foydalanishimiz katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda barkamol yosh avlodni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalashning qator ustivor yo‘nalishlari belgilab olingan bo‘lib, ushbu vazifa ta‘lim-tarbiya uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Bu ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- oiladagi ma’naviy-ahloqiy muhitni rivojlantirish va sog‘lom barkamol avlodni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish;
- sog‘lom bolaning dunyoga kelishiga oila, davlat va jamiyatni e‘tiborini kuchaytirish;
- bolalarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom tarbiya va ta‘lim olishlari uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

- ota-onalik ma‘suliyatini shakllantirish masalalari bo‘yicha ommaviy ta‘limni tashkil qilish va rivojlantirish;
- jamoatchilik ongiga etuk, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashda yuqori
- ma‘suliyatlilikni his etish psixologiyasini shakllantirish kabi vazifalardan iboratdir.

Yosh avlodni ahloqiy jihatdan yetuk, Vatan uchun fidoiy kishilar bo‘lib etishishlarida milliy qadriyatlar asosida ma’naviyatni tiklash, qadriyatlilik va umuinsoniylik jihatlariga e‘tibor qaratish va tolerantlik xususiyatini ma’naviy-ma‘rifiy hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish lozim. Yosh barkamol avlodni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalash - sog‘lom ma’naviy muhitni, kuchli ijtimoiy himoya va moddiy ta‘minotni tashkil qilish bilan amalga oshiriladi. Vorislik fazilatlarini tarbiyalash ta‘limning insonparvarlashuvi, boshqa tomondan esa gumanitar va ijtimoiy fanlarni o‘qitish usullarini takomillashtirish talab etiladi. Kelajak avlodning tarbiyasidagi eng asosiy jihat uning ma’naviy sog‘lomligidir. Shuning uuchun ham ta‘lim-tarbiyada ma’naviy merosga vorislik masalasini keng yoritish muhim o‘rinda turibdi. Bu haqda professor R. H. Murtazaeva yoshlar tarbiyasidagi ma’naviy merosga vorislikning tutgan o‘rniga to‘xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: Tarbiya-toqatsizlikning oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalashni hozir birinchi darajali vazifa deb hisoblamoq kerak. Yoshlarni tarbiyalash ko‘pgina davlat va jamiyat muassalarining umumiy vazifasidir. Shu bilan birga joylarda ma’naviy meros ilmiy-amaliy markazlari bilan birgalikda yoshlarni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalash muammolarini hal etish muhim o‘rinda turadi.

Ayni paytda ta‘lim muassasalarida vorislik ongini shakllantirish va o‘rgatishga qaratilgan ta’lim dasturlari texnologiyalar yaratib hayotga tatbiq etish o‘ziga xos o‘rinda turadi. ―Ta’lim jarayonida ajdodlar merosiga vorislik tamoyilidan ijodiy foydalanish, bir tomondan ta’lim samaradorligi garovi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlarning boshqa sohalariga yo‘naltirilishi uchun qulay muhit yaratadi.[1]

Yoshlarni ma’naviy merosga vorislik ruhida tarbiyalash fuqarolik jamiyatini muhim sharti bo‘lib, insonlar bir-biriga ehtiyoj sezganda va tarqoqlikda hech narsani uddalay olmasliklarini tushunganda namoyon bo‘ladi. Bu muammoni tahlil qilganda ba’zan chidamlilik maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida fikr bildiriladi. Chunki jamiyat taraqqiyoti turli shakllarning birgalikda mavjud bo‘lishining universal me’yori mavjud bo‘lmaganida edi, tajavvuzkorlik, millatchilik, fanatizm turli xil ziddiyatlar, murosasizlik, genotsid, ksenofobiya, etnofobiya va insonga nafrat allaqachon yer yuzini egallab har qanday xilma-xillikka chek qo‘ygan bo‘lardi.

Ma’naviy merosga vorislik maqsadlari har qanday kishi huquqlarini himoya qilish hamda etnik, huquqiy va siyosiy jihatdan murosasozlik ko‘rinishlariga munosabatni

belgilovchi faol turmush shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni vorislik ruhida tarbiyalash mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritishga o‘rgatishi, ularga ahloqiy qadriyatlarga asoslangan qarashlarni shakllantirishga ko‘maklashishi lozim. Yoshlarning milliy ma’naviy merosga egalik qilish umumiy huquq va erkinliklarilaridan biri ekanligini o‘qtirishdan boshlanadi. Bu bilan ularda ana shu huquqlarining amalga oshirishini ta‘minlash va boshqalarning ham shunday huquqlarini himoya qilishga bo‘lgan istaklari mustahkamlab boriladi. Yoshlarni milliy ma’naviy merosga egalik qilish huquqi barcha xalqlar o‘rtasidagi tinchlik va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zarur sharti ekanligini o‘sib kelayotgan barkamol avlodga tushuntirish jamiyat taraqqiyotida muhim asos bo‘ladi. Bu haqda fikr bildirar ekan O‘zbekiston Respubliksining Prezidenti Sh. Mirziyoyev shunday deydi: ―Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ulae davlat tomonidan kafolatlanadi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida ma’naviy merosga oid bo‘lgan bir qancha xalqaro hujjatlar yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan: YUNESKO jamg‘armasi tomonidan qabul qilingan bir qator hujjatlar; 2000 yil 26-28 aprelda Senegalning Dakar shahrida YUNESKO tashkil etgan jahon ta‘limi forumida qabul qilingan hujjatlar; Tinchlik madaniyati bo‘yicha BTM deklaratsiyasiva Harakat Dasturi hamda tinchlik madaniyati va dunyo bolalari uchun kuch ishlatmaslik Xalqaro Dekadasi hujjatlari va boshqalar O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida keng qo‘llanib amalda yosh barkamol avlodni tarbiyalash ishini yanada rivojlantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida: O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi- deb belgilanadi.[3]

Aslida davlatimizning ko‘p millatli mamlakatga aylanishi, aholi tarkibida turli millat va elatlarning mavjudligi uzoq tarixiy jarayonlarning natijasi hisoblanadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ―Respublika hududida bundan yuz yil avval 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. Oradan 30 yil o‘tgach bu ko‘rsatkich 91 taga, 1959 yilda 113 taga, 1979 yilda 132 taga etgan. Aholini ro‘yxatga olishning eng so‘ngi natijasi, yuqorida aytilganidek 136 taga etganligini ko‘rsatib turibdi. Jamiyat fuqarolari, umuman millatlarning siyosiy va huquqiy tengligini tan olish, ular o‘rtasidagi munosabatlar barqarorligini ta‘minlashning asosiy omilidir. Zero, yurt tinchligini, uning taraqqiyotini millatlararo do‘stlik va hamjihatlik ta‘minlab beradi. Bugungi kunda O‘zbekistonning tanlagan yo‘li faqat millatparvarlikkagina emas, balki, baynalmilalchilikka ham asoslangandir. Zero, baynalmilal siyosat har qanday huquqiy davlatning muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Shularni nazarda tutgan holda, Respublikada ijtimoiy-siyosiy kuchiga ega bo‘lgan jamoat tashkilotlari hamda milliy-

madaniy markazlarlar soni yil sayin ortib bormoqda. Chunonchi, 1989 yil 10 ta, 1990 yil 12 ta milliy markazlar soni mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ular soni 150 taga etdi. Milliy-madaniy markazlar faoliyati an‘ana va urf-odatlar milliy marosimlarni qayta tiklash va rivojlantirish, millatlararo munosabatlar, bag‘rikenglik, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida tarbiyalashga qaratilgandir.

Respublikamiz 150 dan ortiq Respublika Baynalmilal madaniyat markazi atrofida 136 ta millat va elat vakillari teng huquqlilik va o‘zaro hamjihatlilik sharoitida ahil-inoq yashab, mehnat qilayotgan ko‘p millatli mamlakatdir. Yani, davlatimiz rahbariyati tomonidan milliy bag‘rikenglik holatlarini kishilar ongiga tobora chuqurroq singdirish siyosati olib borilmoqda. Ta‘kidlash lozimki, Inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasida va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda mujassamlashgan umubashariy qoidalar va tamoyillar O‘zbekistoanda izchil ro‘yobga chiqarilmaqda. O‘zbekiston Respublikasining ko‘p millatliligi shu bugungi kunda tabiiy-ijtimoiy omil bo‘lib, bu omil Respublika Prezidentining demokratik siyosatida alohida o‘rin tutadi. Ana shu oqilona siyosatning sharofati natijasida O‘zbekiston bugungi kunda eng tinch va osoyishta bir mamlakat sifatida rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz barqaror rivojlanishi uchun tinchlik, osayishtalik, totuvlik, millalararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo‘ronlarda egilmaydigan bo‘lib ulg‘ayadi. Zero, millat sevgisi va e‘zozi qadar ulug‘ mukofat yo‘qdir. Bu faravon, to‘kin kun kechirish uchun yakkayu-yagona, to‘g‘ri, aql-idrokli, iymon-e‘tiqodli yo‘ldir. Bu yo‘lda xato qilish tinchlikni boy berish bilan barobar. Aynan shu boisdan ham O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat vakillariga o‘z tilida kuylash, milliy san‘atlarini rivojlantirish, milliy yo‘nalishdagi dastalar, guruhlar tashkil qilish, o‘z iste‘dodini namoyish qilish uchun keng sharoitlar yaratib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.,O'zbekiston., 2012.
2. Mirziyoyev Sh.M.. Qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: ―O‘zbekiston‖, 2017.
3. Choriyev A. Inson falsafasi. –T., Yangi avlod. 2004, 223 b.
4. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T. : «O‘zbekiston», 2004.
5. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan. 2006.